

QIZILTEPA TUMANIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Turayev Abduvohid Qo'ldoshevich*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Raqqamli iqtisodiyot" kafedrası asisssenti**E-mail: abduvohidturayev70@gmail.com***Dilshod Shukurullayev Abduhoshim o'g'li***Samarqad iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi**E-mail: dshukurullayev72@gmail.com***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:06.01.2026**Revised: 07.01.2026**Accepted:08.01.2026***KALIT SO'ZLAR:***Qiziltepa tumani,
turizm salohiyati,
rekreasiya resurslari,
ekologik turizm,
madaniy turizm, qishloq
turizmi, infratuzilma,
hududiy rivojlanish,
investitsiyalar, barqaror
turizm.**Mazkur maqolada Navoiy viloyati Qiziltepa tumanining turizm salohiyati, tabiiy-geografik va tarixiy-madaniy resurslari hamda ularni samarali rivojlantirish istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida hududning tog' va tog'oldi landshaftlari, Zarafshon daryosi havzasi, tarixiy yodgorliklar, milliy an'analar va ekologik resurslarning turizmni rivojlantirishdagi o'rni baholangan. Shuningdek, tumanda turizm infratuzilmasining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida Qiziltepa tumanida madaniy, ekologik, qishloq va agro-turizm yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan hamda turizm sohasini barqaror rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan*

Kirish. Hozirgi vaqtda Respublikamizda dam olish maskanlarining ko'payib borayotganligiga qaramay, ular kelayotgan turistlarning hamda xalqimizning dam olish sohasidagi ehtiyojlarini ta'minlay olmaydi. Hali dam oluvchi va sayohatchilarning tabiat

quchog'ida, xushmanzara va orombaxsh go'shalarda zavq bilan dam olishlarini tashkil etish muammosi ustida qator amaliy ishlar bajarilishi zarurligi ko'rinib turibdi. Ayniqsa tashrif buyurayotgan turistlarning, sayohatchilarning ommaviy dam olish ehtiyojini to'la qondirish uchun endilikda dam olish uylari, oromgohlar va istiroxat bog'larining o'zigina kifoya qilmaydi. Shuning uchun Respublikamizda muayyan tabiiy mintaqaning rekreasiya, turizm maqsadlarida o'rganish va ularni baholash zarurdir. Xususan, Navoiy viloyatining tog' va tog'oldi hududlarda rekreasiyaning bir necha yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Maqsad bu yerdagi mavjud betakror tabiat landshaftlariga zarar yetkazmasdan, turli rekreasiya shoxobchalarini to'g'ri joylashtirish hamda mavjudlaridan oqilona foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, viloyat respublikaning tarixiy yodgorliklari ko'p bo'lgan Samarqand – Buxoro yo'nalishi markazida joylashganligidan uning rekreasiya boyliklaridan, dam olish maskanlaridan hamda tarixiy obidalaridan oqilona foydalanishni tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va ekologik omillar yig'indisi mintaqaviy turizm rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik turizmning strategik rivojlanishi va mintaqaviy iqtisodiyotlarni yaxshilashga oid muhim ko'rsatmalarni beradi. Mazkur masalalar bo'yicha so'nggi ilmiy tadqiqotlardan foydalanib, ushbu adabiyot tahlilida mintaqaviy turizm rivojlanishining asosiy omillarini yaxlit tushunishni ta'minlash uchun umumlashtiriladi. Maqolaning ilmiy jozibadorligini oshirish maqsadida xalqaromiyosda turli xil olimlar va mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlardan foydalanildi. Xususan, Li, Liu va Lin turizmning psixologik jihatlarini o'rganib, mintaqaviy shaxsiyat xususiyatlari turizm xulq-atvori va tanloviga, shuningdek, turizm rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tahlil qilgan⁷. Tadqiqotchilar fikricha, mintaqada yashovchilarning shaxsiyati va mehmon kutishdagi kutilmalari sayyohlarni jalb qilishi yoki ularni uzoqlashtirishi mumkin. Ushbu o'zaro ta'sir psixologik moslik nuqtai nazaridan turizm strategiyalarini ishlab chiqishda marketing va rivojlanishga qaratilgan yondashuvning boshlang'ich nuqtasini belgilaydi. Bu esa mintaqaviy turizm bozorlarining jozibadorligini va barqarorligini oshirishga yordam beradi

⁷ Li, Y., Liu, Y., & Lin, Y. (2024). Human psychology as a driver of tourism development: The effect of regional personality traits. *Annals of Tourism Research*.

Kovshov, Lukyanova va Galin mintaqaviy jozibadorlik va qishloq hududlaridagi raqobatni o'rganishgan⁸. Kovshov va boshqalar (2024) xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishini ta'kidlaydilar. Ushbu doirada mualliflar qishloq hududlari o'zlarining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalangan holda investitsiyalar va sayyohlarni jalb qilish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yashash standartlarini oshirish usullarini baholaydilar.

S.Xalilovning "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari"⁹ nomli monografiyada turizm sohasini barqaror rivojlantirish muammolari va ularning ilmiy-amaliy yechimlarini tadqiq qilish natijalari yoritilgan. Shuningdek, turizm sohasini samarali boshqarish istiqbollari o'ld takliflar asoslab berilgan.

Sh. Omonov Turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlarida asosiy e'tiborni turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlariga va marketing tizimini rivojlantirish samaradorligiga e'tibor berganligini ko'rishimiz mumkin¹⁰

Muhammadmurod Yorqulov "O'zbekistonda hududiy turizmni barqaror rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy hamda hukumat strategiyalarining roli va ta'siri"¹¹ nomli maqola O'zbekistonda mintaqaviy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, turizmni rivojlantirishda hamda boshqarishda muhim bo'lgan omillar, jumladan, infratuzilma, raqobatbardoshlik, davlat siyosati hamda iqtisodiyotdagi barqaror amaliyotlar rolini o'rganishga qaratilgan. Maqalada 1995-yildan 2023-yilgacha bo'lgan ma'lumotlardan foydalangan holda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotini (YAIM) shakllantirishda turizmning rolini va muhim omillarini, xususan, sayyohlarning kelishi, davlat xarajatlari va inson kapitalini o'rganadi.

Tahlil natijalari.

Qiziltepa tumani Navoiy viloyatining janubiy qismida joylashgan bo'lib, o'ziga xos tabiiy va tarixiy-madaniy salohiyatga ega hududlardan biridir. Tuman hududida Zarafshon daryosi havzasi, qadimiy madaniyat yodgorliklari va milliy an'analar turizm sanoatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunda tumanda turizm sohasini

⁸ Kovshov, V., Lukyanova, M., & Galin, Z. (2024). International regional competitiveness of rural territories as a factor of their socio-economic development: Methodological aspects. Heliyon.

⁹ S.Xalilovning "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari". Monografiya - T.: "Alfraganus University" nashriyoti, 2024-y. — 125-b.

<https://portfolio.afu.uz/storage/documents/aPVNHd7MP69CULOIAPNsTsJj36mQKZ8mELxWpq7.pdf>

¹⁰ Sh. Omonov Turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari; journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57 <https://cyberleninka.ru/article/n/turistik-xizmatlarni-rivojlantirish-imkoniyatlari/pdf>

¹¹ Muhammadmurod Yorqulov "O'zbekistonda hududiy turizmni barqaror rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy hamda hukumat strategiyalarining roli va ta'siri" <https://zenodo.org/records/14778322>

tizimli rivojlantirish orqali mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

“Navoiy viloyatining tog‘ va tog‘oldi zonalari geologik jihatdan asosan ohaktosh, granit hamda marmar jinslaridan shakllangan bo‘lib, bu hududlar Nurota tog‘ tizmasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur tog‘li hududlarning dengiz sathidan balandligi shimoli-g‘arbiy qismida taxminan 400 metrni tashkil etib, janubi-sharq tomonga siljigan sari 2169 metrgacha yetadi, bu esa relyefning keskin farqlanishini ko‘rsatadi. Nurota tizmasining janubiy yo‘nalishida Oqtog‘, janubi-g‘arb tomonida esa Qoratog‘ tog‘lari joylashgan bo‘lib, ular viloyat tog‘ landshaftlarining yaxlit tizimini hosil qiladi. Tog‘ etaklari hududida daryo va soylar tomonidan keltirilgan yotqiziqlar natijasida allyuvial tekisliklar vujudga kelgan bo‘lib, ushbu tekisliklar shimoli-g‘arb va janub yo‘nalishlarida asta-sekin ko‘tarilib, tog‘ tizmalari bilan tutashadi. Natijada hududda tabiiy sharoit va balandlik mintaqalari farqiga asoslangan, ko‘rinishi va tarkibi jihatidan turlicha bo‘lgan tog‘ landshaftlarining bir necha shakllari shakllangan. Viloyat hududida joylashgan Nurota tog‘ yong‘oqzor qo‘riqxonasi 1975 yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning umumiy maydoni 22 138 gektarni tashkil etadi. Ushbu qo‘riqxonaga o‘z tarkibida dasht, tog‘-archazor hamda baland tog‘ mintaqalarini mujassamlashtirgan bo‘lib, tabiiy landshaftlarning xilma-xilligi va o‘ziga xos ekologik xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega”¹².

Qiziltepa tumanida turizm infratuzilmasi hali to‘liq shakllanmagan. Tuman hududida mehmonxonalar, turist lagerlari va zamonaviy turizm xizmatlari markazlari soni cheklangan. Asosiy muammolardan biri yo‘llar tarmog‘ining yetarli darajada rivojlanmagani va turistik obyektlarga qulay yetib borish imkoniyatlarining cheklanganligidir.

Tuman hududida bir qator qadimiy qishloqlar, tarixiy arxitektura yodgorliklari va arxeologik qatlamlar mavjud. Ayniqsa, O‘rta Osiyo savdo yo‘llari bilan bog‘liq tarixiy joylar va qadimiy aholi yashaydigan hududlar o‘rganilishi lozim bo‘lgan ob‘yektlar hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy hunarmandchilik, xalq amaliy san‘ati va milliy urf-odatlar madaniy turizm uchun muhim resurslardir.

Tumanda turizm holatini o‘rganib uning rivojlantirishning asosiy muammolari quyidagilardan iborat ekanligini aniqladik:

¹² Sherzod Isomiddinov Nozima Azamatova “Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish” December 2023 YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 1(11-12) DOI:10.55439/GED/vol1_iss11-12/a344 LicenseCC BY 4.0 https://www.researchgate.net/publication/378542632_Navoiy_viloyatida_turizmni_rivojlantirish

- Zamonaviy mehmonxonalar va turist markazlari yetishmasligi
- Yo'l-transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi
- Malakali turizm kadrlarining etishmasligi
- Marketing va brendlash faoliyatining zaif olib borilishi
- Turistik xizmatlar sifatining past bo'lishi
- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qiyinchiliklar

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi imkoniyatlardan samarali foydalanilmoqda: Birinchidan, Qiziltepa tumanida tarixiy-arxeologik tadqiqotlarni kengaytirish va topilgan yodgorliklarni saqlash, qayta tiklash orqali madaniy turizm yo'nalishini shakllantirish mumkin. Mahalliy aholining milliy hunarmandchiligi, kiyim-kechak, ovqat tayyorlash an'analari va folklor san'atini namoyish etish orqali etnoturizm yo'nalishini rivojlantirish istiqbollari mavjud.

Ikkinchidan, cho'l landshaftlari va Zarafshon daryosi atrofidagi ekotizimlar ekologik turizm uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Cho'lda sayohat, tuyalar safari, qum tepaliklarida chang'i uchish, velosiped safari va trekking yo'nalishlari keng qiziqish uyg'otishi mumkin. Qushlar va boshqa yovvoyi hayvonlarni kuzatish ham ekologik turizm rivojlanishi uchun istiqbollidir.

Uchinchidan, mahalliy fermer xo'jaliklari va qishloq hayoti bilan tanishish, an'anaviy dehqonchilik usullarini o'rganish, mahalliy mahsulotlarni tatib ko'rish imkoniyatlari qishloq turizmini rivojlantirish uchun asosdir. Mehmon uylari va fermer xo'jaliklarida turist qabulini yo'lga qo'yish orqali mahalliy aholining daromadini oshirish mumkin.

1-jadval

Qiziltepa tumanida turizmni rivojlantirish istiqbollari¹³

Istiqbol yo'llari	Mohiyati
Turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish	Zamonaviy mehmonxonalar, motellar, camping zonalari, restoran va kafeler qurish. Turistik xizmat markazlari va axborot kiosklarini joylashtirish. Sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan zamonaviy ob'yektlar barpo etish.
Yo'l-transport tarmog'ini yaxshilash	Asosiy turistik ob'yektlarga yetib borish uchun yo'llarni ta'mirlash va yangi yo'llar qurish. Jamoat transporti tizimini takomillashtirish va maxsus turist avtobuslarini joriy qilish. Yo'l

¹³ Mavzuga oid adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan

	belgilari va ko'rsatmalarni o'rnatish.
Marketing va brendlash faoliyatini kuchaytirish	"Qiziltepa - cho'lining marvaridi" kabi brend yaratish. Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar va veb-saytlar orqali targ'ibot. Xalqaro turizm yarmarkalarida ishtirok etish. Video roliklar, bukletlar va gidlar tayyorlash.
Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish	Mahalliy aholini turizm sohasida o'qitish va treninglar o'tkazish. Gidlar, mehmonxona xodimlari, oshpazlar tayyorlash. Chet tillarini o'rgatish dasturlarini joriy etish. Xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish.
Ekologik turizm rivojlantirish	Tabiatni muhofaza qiluvchi sayohat marsrutlarini ishlab chiqish. Ekologik toza mehmonxonalar va kemping zonalarini qurish. Cho'l safari, qushlarni kuzatish turlari tashkil etish. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xabardorlik kampaniyalarini olib borish.
Agro-turizm infratuzilmasini yaratish	Fermer xo'jaliklarida mehmon uylarini tashkil etish. Mahalliy qishloq mahsulotlarini tayyorlash va sotish markazlarini ochish. An'anaviy hunarmandchilik ustaxonalarini tashkil qilish. Milliy taomlar festivallari o'tkazish.
Investitsiyalarni jalb qilish	Xususiy sektor va xorijiy investorlar uchun imtiyozlar yaratish. Davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalar ishlab chiqish. Turizm zonalarida maxsus soliq imtiyozlarini joriy etish. Mikroqarzarlar va startap dasturlarini qo'llab-quvvatlash.
Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Mobil ilovalar orqali turist xizmatlarini taqdim etish. Virtual ekskursiyalar va onlayn rezervatsiya tizimlarini yaratish. QR-kodlar orqali tarixiy ob'yektlar haqida ma'lumot berish. Elektron to'lov tizimlari va Wi-Fi zonalarini kengaytirish.
Xalqaro hamkorlikni kengaytirish	Qo'shni davlatlar va xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorlik qilish. Viza rejimini soddalashtirish va turistlar uchun qulayliklar yaratish. Xorijiy tajribani o'rganish va qo'llash. Qo'shma turizm marshrutlarini ishlab chiqish.
Xavfsizlik choralarini kuchaytirish	Turistlar xavfsizligini ta'minlash uchun nazorat tizimini joriy etish. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish. Tibbiy

	xizmat punktlarini tashkil etish. Sug'urta xizmatlarini rivojlantirish.
--	---

Qiziltepa tumanida turizmni rivojlantirish mahalliy aholining bandligi va daromadlarini oshirishga, mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga, tarixiy-madaniy merosni saqlashga va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Turizm sohasining rivojlanishi qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mintaqa obro'sini oshirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalari Qiziltepa tumanida turizmni rivojlantirish uchun zarur tabiiy, tarixiy va madaniy resurslar yetarli ekanligini ko'rsatadi. Hududning geografik joylashuvi, Zarafshon daryosi havzasi, tog' va cho'l landshaftlarining uyg'unligi turizmni diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, marketing faoliyatining sustligi va malakali kadrlar tanqisligi sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va zamonaviy mehmonxonalar hamda xizmat ko'rsatish obyektlarini barpo etish;

Ikkinchidan, turistik obyektlarga olib boruvchi yo'l-transport tarmog'ini yaxshilash va logistika qulayliklarini yaratish;

Uchinchidan, Qiziltepa tumanining turistik brendini shakllantirish va marketing faoliyatini kuchaytirish;

To'rtinchidan, turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va xizmatlar sifatini oshirish;

Beshinchidan, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali turistik xizmatlarning samaradorligini oshirish.

Ushbu choralar to'liq amalga oshirilganda, Qiziltepa tumani O'zbekiston turizm xaritasida o'ziga xos o'ringa ega bo'ladi va mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga muhim hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Li, Y., Liu, Y., & Lin, Y. (2024). Human psychology as a driver of tourism development: The effect of regional personality traits. *Annals of Tourism Research*.

2. Kovshov, V., Lukyanova, M., & Galin, Z. (2024). International regional competitiveness of rural territories as a factor of their socio-economic development: Methodological aspects. Heliyon.

3. Xalilov S. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari". Monografiya - T.: "Alfraganus University" nashriyoti, 2024-y. — 125-b.
<https://portfolio.afu.uz/storage/documents/aPVNHd7MP69CULOIAPNsnTsJj36mQKZ8mELxWpq7.pdf>

4. Omonov Sh. Turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlari; journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57 <https://cyberleninka.ru/article/n/turistik-xizmatlarni-rivojlantirish-imkoniyatlari/pdf>

5. Muhammadmurod Yorqulov "O'zbekistonda hududiy turizmni barqaror rivojlantirishda ijtimoiy-iqtisodiy hamda hukumat strategiyalarining roli va ta'siri"
<https://zenodo.org/records/14778322>

6. Sherzod Isomiddinov Nozima Azamatova "Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish"
December 2023 YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT 1(11-12)
DOI:10.55439/GED/vol1_iss11-12/a344 LicenseCC BY 4.0
https://www.researchgate.net/publication/378542632_Navoiy_viloyatida_turizmni_rivojlantirish

7. Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги
<https://www.davaktiv.uz/oz/corporate/company/XLPLMRMhttps://inlibrary.uz/index.php/scin/article/download/98531/100088/137250>

Internet saytlari

8. <https://www.ajhuman.uz/article/018191023401/abstract>

9. <https://shaffofyul.uz/oz/news/navoli-viloyati-qiziltepa-tumanini-kompleks-rivojlantiris-biica-qilinayotgan-islari-talili843>

<https://www.facebook.com/ozbekistanhaber/posts/navoiy-viloyatida-turizm-yonalishida-xizmatlar-sohasi-rivojlanmoqdanavoiy-viloya/1102365138743919/>